

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

SULTANOVA DILDORAXON AZAMAT QIZI

**OSHIQ ERKIN ASARLARI TILINING LINGVOPOETIK VA
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

UO‘K: 811.512.133’37:008+821.512.133.09-1

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Sultanova Dildoraxon Azamat qizi

Oshiq Erkin asarlari tilining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari.....3

Султанова Дилдорахон Азамат кизи

Лингвопоэтические и лингвокультурологические особенности языка произведений Ошик Эркина.....27

Sultanova Dildorakhon Azamat qizi

Linguopoetic and linguoculturological features of the language of Oshiq Erkin’s works.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

SULTANOVA DILDORAXON AZAMAT QIZI

**OSHIQ ERKIN ASARLARI TILINING LINGVOPOETIK VA
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2026

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil14788 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Primov Azamat Iskandarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qurboniyazov Gulmirza Allamberganovich
filologiya fanlari doktori, professor,

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "2" aprel soat 19'00" dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (+99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ~~0-36~~ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00), e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "13" mart dagi 83 raqamli reestr bayonnomasi).



D.Q.G'ayipov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

S.S.Atajanov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

D.T.Yuldashev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
goshidagi ilmiy seminar raisi v.v.b,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til birliklarining lingvopoetik va lingvokulturologik jihatlarini tadqiq etish keyingi yillarda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Zero, dunyo tilshunosligida XX asr oxiridan boshlab tilni antroposentrik yondashuv asosida tadqiq etish barqarorlashib, hozirgi vaqtda lingvomadaniyatshunoslik tarmog‘i lisoniy birliklarni millat madaniyati bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi istiqbolli yo‘nalish sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda tilni o‘z sohibi, uning milliy mentaliteti, madaniyati bilan birga tadqiq etishga e‘tibor kuchaydi. Muayyan adib asarlari tiliga poetik jihatdan yondashish tilning ifodaviyligini yoritib beruvchi tadqiqotlarning teran va asosli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida antroposentrik tilshunoslikning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan lingvopoetika va lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar zamonaviy tahlil metodlariga tayanilgan holda olib borilmoqda. Ularning madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari bilan mushtarak jihatlar chuqur o‘rganilmoqda. Xususan, lingvopoetikada fonetik, leksik va grammatik sathlardagi birliklarga badiiy adabiyot tili va ijodkor individual uslubi shakllanishining asosiy vositasi sifatida qaraladi va ularning eng namunaviy hamda xarakterli jihatlarini tahlil qiladi. Ammo lingvopoetikada badiiy tasvir vositalarining badiiy matnda voqelanishi, lingvokulturologiyada esa badiiy asarlarda aks etgan lingvomadaniy birliklarning asar mazmuni va badiiyatini yuksaltirishdagi roli va o‘ziga xos jihatlarini atroflicha tadqiq etish dolzarb muammoligicha turibdi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar maxsus o‘rganilmoqda. O‘zbek adabiyoti boy merosga ega bo‘lib, ushbu meros namunalarini lisoniy tadqiq qilish bugungi tilshunoslik sohasi vazifalaridan biridir. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib ketganlar. Shu tilda buyuk madaniy namunalarni, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar¹”. Ushbu merosni saqlash, o‘rganish va tadqiq qilish borasidagi davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlari tilimizni har tomonlama o‘rganish zaruratini belgilaydi: “O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur²”. Ta’kidlash kerakki, badiiy matnni tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani *lingvopoetika* deb nomlash ancha turg‘unlashgan hamda ko‘pgina tadqiqotlar yaratilgan. Mustaqillik yillaridan boshlab respublika matbuoti sahifalarida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Oshiq Erkin hayoti va ijodi haqida bir qancha maqolalar chop etildi. E‘lon qilingan maqolalarning aksariyati adabiyotshunoslikka, ya’ni shoir she’riyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularni Ozod Sharafiddinov, Muhammad Yusuf, Erkin Samandar, Omon Matjon va boshqa

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoyevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>.

² O‘sha manba.

qalamkashlarning e'tirofi sifatida baholash mumkin. Shoir ijodini badiiy va lisoniy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar esa sanoqlidir. O'tgan yillar davomida Oshiq Erkinning qirqqa yaqin badiiy, publitsistik kitoblari va yuzdan ortiq ommabop maqolalari hamda tezislari, felyetonlari nashr etilgan. Shoir ijodi she'riyat ixlosmandlariga yaxshi tanish bo'lib, kitobxonlarga manzur bo'lgani hech kimga sir emas. Oshiq Erkin o'ziga xos shoirdir. Uning asarlari tili xalqona ohanglarda bitilganligi, qo'shiqbopligi bilan boshqa shoirlar ijodidan farqli xususiyatlarga ega. Adibning so'z qo'llash mahoratini aks ettiruvchi badiiy til vositalarini chuqur o'rganish hamda tadqiq etish ishning dolzarbligini belgilaydi.

2019-yil 8-dekabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari; 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni va mazkur farmon bilan tasdiqlangan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi", 2025-yil 20-oktabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308 son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ham ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari bo'yicha muayyan tadqiqotlar qilingan. Ko'plab olimlar lingvopoetika sohasi bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan B.V.Tomashevskiy L.V.Sherba, D.N.Shmelev, V.V.Vinogradov, G.V.Stepanov, V.Y.Zadornova, O.S.Axmadova, A.A.Lipgart³ kabilar o'z fikrlarini bayon qilganlar.

O'zbek tilshunosligida nasr va nazmda ijod qiluvchilarning til unsurlaridan qay darajada foydalanish mahoratining tadqiq etilishi natijasida ijodkorning o'ziga xos uslubini aniqlash bosh mavzu darajasiga ko'tarilgan. So'nggi yillarda R.Normurodov, M.Yo'ldoshev, Y.Sayidov, F.Bobojonov, D.Shodiyeva,

³ Томашевский Б.В. Теория литературы (Поэтика). – М. □ 1925. – 232 с.; Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Т. 1. Л., 1958. – 182 с.; Шмелев Д.Н. Слова и образ. – М.: Наука, 1964. – С.3.; Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М. □ 1980. – 360 с.; Степанов Г. В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988. – С.148.; Задарнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... док. филол. наук. – М., 1992. – С. 60.; Ахманова О.С. О стилистической дифференциации слов // Сб. статей по языкознанию. Проф. МГУ акад. В.В. Виноградову в день его 60-летия. М., 1958. – С. 24-39.; Липгарт А.А. О лингвопоэтическом анализе художественного текста // Студенческие научные доклады. Ч. III // Лингвистика. – М., 1992. – С. 3-8. Шу муаллиф. Лингвопоэтическое сопоставление: теория и метод. – М., 1994. – 276 с.

G.Muhammadjonova, S.Boymirzayeva, S.Karimov, M.Yoqubbekova, Z.Choriyeva, L.Jalolova, M.Qosimova, J.Matnazarov, D.Allaberganova, A.Allaberganova va F.Otajonova⁴ kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘zbek adiblaridan ayrimlari ijodining lisoniy tadqiq etilishi ham buning dalilidir. Tadqiqotlarning bir qismi nasriy asarlar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan, shuningdek, nazmiy asarlar lingvopoetikasini o‘rganishga ham e’tibor kuchayib bormoqda.

G.Muhammadjonova tomonidan o‘tgan asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida adabiyotimizga kirib kelgan Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A’zam O‘ktam, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodi lingvopoetik tadqiq etildi. Mazkur ishda alohida bir ijodkorga emas, balki alohida bir davrga, ya’ni tariximizda buyuk burilish yasagan Mustaqillik arafasidagi hamda uning dastlabki yillarini qamrab oluvchi, yangi ijtimoiy siyosiy fikrlari shakllana boshlagan qalamkashlarning adabiyotimizga kirib kelishi bilan yangicha qarashlar o‘z ifodasini topayotgan davrga alohida e’tibor berilgan⁵.

O‘zbek tilshunoslik ilmda ham bu yo‘nalish bo‘yicha qator ilmiy ishlar olib borilgan. O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Sayidrahimovning “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini⁶, D.Xudayberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasi, Sh.Usmonovanning “Lingvokulturologiya” darsligini misol keltirish mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyekt masalalari o‘rganilgan.

Adabiyotshunos S.R.Ro‘zimboyev, B.S.Sadaddinovlarning “Oshiq Erkin – yor va diyor kuychisi”⁷ monografiyasida ham Oshiq Erkin ijodi va shaxsiyati

⁴Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.; Йўлдашев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида): филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 26 б.; Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Бабаджонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 23 б.; Шодиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси: филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 144 б.; Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. nomzodi ... diss. - Toshkent, 2003. – 136 b.; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004 – 42 б.; Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 145 б.; Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: фил. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 256 б.; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: филол. фан. ном ... дисс. – Тошкент, 2006. – 175 б.; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.; Қосимова М. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари. (Тоғай Мурод асарлари мисолида): филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 24 б.; Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърини лингвопоэтикаси: филол. фан. номз. ... дисс. – Урганч, 2021. – 165 б.; Allaberganova D. Omon Matjon she‘riyati lingvopoetikasi: filol. fan. nomzodi ... diss. – Urganch, 2024. – 140 b.; Allaberganova A. Mutrib Xonaxarobiy she‘riyati lingvopoetikasi: filol. fan. nomzodi ... diss. – Urganch, 2024. – 155 b.; Otajonova F. Hofiz Xorazmiy devoni lingvopoetikasi: filol. fan. nomzodi ... diss. – Urganch, 2025. – 145 b.

⁵ Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. nomzodi ... diss. – Toshkent, 2003. – 136 b.

⁶ Ro‘zimurodova M. Stereotiplar – milliy madaniyat ifodachisi. Mag. diss. – Termiz, 2023. – 75 b.; Махмудов Н. “Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...” // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. № 5. – Б. 3-16.

⁷ Рўзимбоев С., Сададдинов Б. Ёр ва диёр куйчиси. – Урганч: Хоразм ёшлари, 2021. – 140 б.

haqida keng mulohazalar yuritilgan. L.Samandarovning “Xorazm adiblari ijodida folklor an’analari” (Mustaqillik davri) dissertatsiyasida ham folklor an’analarning Oshiq Erkin ijodiga ta’siri to’g’risidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, Oshiq Erkin ijodi lisoniy jihatdan tadqiq qilinmagan, uning asarlarida o‘ziga xos so‘z o‘yinlari, ko‘chma ma’noli so‘zlar, dialektizm va frazeologizm kabi birliklar ko‘proq aks etgani sababli lingvopoetik va lingvokulturologik jihatdan chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi shoir asarlarini lingvopoetik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilib, ijodkorning til vositalaridan mohirona foydalangan holda badiiy matni shakllantirish hamda lingvokulturologik birliklardan foydalanish mahoratini va bu orqali uning o‘zbek tili rivojidagi o‘rni belgilashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Oshiq Erkin asarlari tilini lingvopoetik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish masalasini nazariy jihatdan asoslash;

shoir asarlari tilidagi okkazonalizmlarni belgilash va ularni lingvopoetik tahlil etish;

ijodkor asarlari tilidagi leksik-semantik vositalarning asar badiiyatini ta’minlashdagi o‘rni belgilash;

shoirning o‘zbek tili imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini aniqlash;

adib asarlarida qo‘llangan maqol va iboralarni lingvopoetik jihatdan tahlil etish;

Oshiq Erkin asarlarida qo‘llangan frazeologizm, dialektizm va onomastik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida Oshiq Erkin ijodining eng ko‘p qismini qamrab olgan “Qo‘ymadingiz, qo‘ymadingiz”, “O‘lguncha sizni derman” va “Yuragimdan joy beraman”, “Ko‘ngil gavhari”, “Muhabbatdan to‘yganim yo‘q”, “Mehrning tushdi yurakka”, “Bo‘zqal’a farzandi”, “Jayhun jilovdori”, “Azizlar” va “Chaqmoq”⁸ kitoblari tadqiqot uchun asosiy manba sifatida tanlandi. Bundan tashqari, ayrim o‘rinlarda boshqa to‘plamlariga kiritilgan asarlari matnidan ham foydalanildi.

Tadqiqotning predmetini Oshiq Erkin asarlaridagi til birliklarining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tasniflash, qiyoslash, kontekstual, lingvopoetik va lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Oshiq Erkin asarlari tilining lisoniy-estetik tabiati, “O‘ynoli”ga o‘ynoli, o‘ynamoqni qo‘ymoli” kabi alliteratsiya va assonanslar, *pistalab, sohibdiyoy* kabi okkazonalizmlar va “*Ishqing qaytmasin, xalqim, Baxting yotmasin, xalqim*” shaklidagi sintaktik parallelizm va takrorlarning lingvopoetik xususiyatlari hamda ularning matn ta’sirchanligini ta’minlashdagi o‘ziga xosligi dalillangan.

⁸ Oshiq Erkin. Qўymadingiz, qўymadingiz. – Toshkent: Faqur Gulom, 1992. – 86 b.; Шу муаллиф: Ўлгунча сизни дерман. – Toshkent: Faqur Gulom, 2007. – 320 b.; Шу муаллиф: Юрагимдан жой бераман. – Toshkent: Ўзбекистон, 2016. – 178 b.; Шу муаллиф: Кўнгил гавҳари. – Toshkent: Faqur Gulom, 1991. – 94 b.; Шу муаллиф: Муҳаббатдан тўйганим йўқ. – Урганч: Хоразм, 2008. – 116 b.; Шу муаллиф: Мехринг тушди юракка. – Toshkent: Faqur Gulom, 2000. – 168 b.; Шу муаллиф: Бўзқала фарзандлари. – Урганч: Хоразм, 1993. – 32 b.; Шу муаллиф: Жайхун жилоvdори. – Toshkent: Янги аср авлоди, 2009. – 112 b.; Шу муаллиф: Azizlar. – Toshkent: Faqur Gulom, 2009. – 90 b.; Шу муаллиф: Чақмоқ. – Toshkent: Faqur Gulom, 1988. – 124 b.

Oshiq Erkinning boshqa shoir va yozuvchilardan ajratib turuvchi betakror mualliflik uslubi va shaxsiy lisoniy manzarasining o'ziga xosligi metafora, o'xshatish, metonimiya, jonlantirish kabi tasviriy vositalarni qo'llashi va *tirnoqqa zor, xonadon qiynalmasin, qoshi yo, la'li lab* kabi sinekdoxa, *shirin xayol, achchiq zarb* kabi sinestetik metaforalar, *hayotni tark etmoq, ko'z yummmoq, o'lmoq* kabi sinonimlar, *faqir-paqir, saboh-saboq* kabi paronimlar, shuningdek, jonlantirish, antiteza, parallelizm, o'xshatishlar, badiiy takrorlardan unumli foydalanishi kabi jihatlar bilan namoyon bo'lishi asarlaridan olingan materiallar tahlili asosida isbotlangan.

Adib asarlari tilida qo'llangan *tillo topgan qul kabi, qattiq qor etmoq, dog'da goldirmoq* kabi frazeologizmlar, *gizlanib, dinjoqmisan, yoshulli, taqyo* kabi dialektizmlarning, *Feruz, Ogahiy, Hazrati Dovud, Jayhun, Sayhun* kabi onomastik birliklar, *shakariston, purjafo, ipdash* kabi okkazonalizmlarning, shuningdek, xalq maqollari, milliy mentalitetni aks ettiruvchi birliklarning badiiy-estetik vazifasi hamda muallifning o'zbek adabiy tilini boyitishdagi lisoniy mahorati asoslangan.

Shoir ijodidagi lisoniy birliklarning lingvokulturologik tabiati, o'zbek milliy mentaliteti, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiruvchi *kayvani, kadxudo, xinoli qiz, ko'z oydin, go'mma, jo'xorixo'rda* kabi birliklarning badiiy matndagi milliy koloritni ta'minlashdagi o'rni ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilshunosligida lingvopoetika va lingvokulturologiyaning taraqqiyoti hamda yo'nalish tamoyillari ilmiy asoslangan;

shoir ijodining zamonaviy tilshunoslikda o'rganilishi ilmiy-tanqidiy tahlil qilingan;

adib asarlaridagi leksik-semantik vositalarning asar badiiyatini ta'minlashdagi o'rni ilmiy baholangan;

maqol va iboralar, milliy mentallikni anglatuvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari aniqlangan;

Oshiq Erkin ijodida qo'llangan nomlar va ijodkorning sarlavha tanlashda o'zbek tilining imkoniyatlaridan foydalanish mahorati aniqlangan;

Oshiq Erkin asarlari tilining lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar zamonaviy o'zbek tilshunosligi uchun zarur ma'lumotlar berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosliligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida e'tibor qaratilgan uslubiy vositalar, shuningdek, shoir asarlari lingvopoetikasi tadqiqi boshqa ijodkorlar asarlarini tahlil qilish va ularning mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Oshiq Erkin ijodi yuzasidan qilingan tadqiqot natijasida Xorazmda ijod qilayotgan shoirlarning so'z qo'llash, til boyliklaridan foydalanish mahoratini qiyoslash orqali o'rganish

imkoniyatlarini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, “Lingvopoetika”, “Lingvokulturologiya” va “Matn tilshunosligi” kabi tanlov fanlarni o‘qitishda; darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oshiq Erkin asarlari tilining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

adibning ko‘chma ma’noli so‘zlar, leksik birliklarning shakliy, mazmuniy turlari, jonlantirish, antiteza, parallelizm, o‘xshatish, badiiy takrordan unumli foydalanishi bo‘yicha to‘plangan materiallar tahlili asosida olingan natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani (2023–2024-yy.) amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 17-iyundagi 921-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mobil ilova lisoniy bazasini shakllantirishda dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalardan foydalanilgan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2023–2024-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 17-iyun, 922-sonli ma’lumotnomasi) ijodkorning xalq maqollari va iboralar, milliy mentalitetni aks ettiruvchi birliklar hamda okkazonalizmlardan ijodiy tarzda foydalanish mahoratini tahlil qilish asosida olingan natijalardan interaktiv elektron platformani yaratishda foydalanilgan.

Ijodkorning til vositalaridan ijodiy tarzda foydalanishi, ayrim o‘rinlarda ularga yangi ma’no yuklay olish mahorati uslubiy vositalardan unumli foydalanishi orqali izohlangan hamda metafora, metonimiya, o‘xshatish, gradatsiya, takrorning poetik matn tarkibidagi muhim o‘ringa egaligi bo‘yicha aniqlangan xulosa va natijalardan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan 2023-yil 12-sentabr kuni efirga uzatilgan “Assalom Xorazm” dasturida, 2024-yil 4-aprelda “Til millat ko‘zgusi” ko‘rsatuvida hamda 2024-yilning 20-dekabr kuni “Tilimizni o‘rganamiz” radioeshittirishida efirga uzatilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 19-iyundagi 478-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur manbalar ko‘rsatuvlarni ma’rifiy va amaliy jihatdan boyitishga hissa qo‘shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami

20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (5 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola, shuningdek, 1 ta uslubiy qo‘llanma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 136 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oshiq Erkin asarlari tilini tadqiq qilishning nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan tashkil topgan. Birinchi bobning dastlabki paragrafi **“Oshiq Erkin ijodiyoti va uning lisoniy-estetik asoslari”** tarzida nomlangan. Ushbu paragrafda Oshiq Erkinning hayoti, ijodiy faoliyati va o‘zbek tili rivojlanishida shoir she‘riyati tilining o‘rni yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

Oshiq Erkin 1956-yilda o‘rta maktabni tugallagach, nufuzli matbuot idoralarida gazetaning mas‘ul kotibi va kotib yordamchisi lavozimida faoliyat olib borgan. O‘sha davrda shoir faoliyat yuritgan “O‘rta Osiyo universiteti” – (keyinchalik “Toshkent universiteti”) gazetasi muharriri, taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov bo‘lib, undan bo‘ljak adib badiiy adabiyot sirlarini o‘rgangan.

Oshiq Erkinning turli yillarda qirqdan ortiq she‘riy, nasriy kitoblari va dostonlari chop etilgan.

Oshiq Erkin ijodiy faoliyati ilmiy yo‘nalishlarda adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotlarga ham munosib ko‘rilmogda. Bu borada M.Qo‘shjonovning 2008-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan “Jayhun jilolari” kitobida Oshiq Erkin ijodiy faoliyati haqida keltirilgan fikr-mulohazalar alohida ahamiyatga ega.

Matnazar Abdulhakimning “Misralardan taralgan ziyo” maqolasida Oshiq Erkin qalamiga mansub “Muhabbatdan to‘yganim yo‘q” to‘plami, undagi she‘rlar badiiy tahlil qilinadi, shoir ijodiga yuqori baho beriladi. Ushbu maqolada: “Oshiq Erkin to‘rtliklaridagi lutfkorlik nihoyatda zalvorli ma‘noni yengil mutoyiba bilan ifodalash mahoratini yaqqol namoyon qiladi. Bunday she‘rlardagi muallifning iltifoti shundan iboratki, u o‘quvchining asablarini lat yedirmaslik uchun og‘ir fikrni go‘yo “yengil” qilib aytadi. Bunday misralardagi fikr zalvori o‘quvchining asab torlarini uzmay, qalbini jarohatlamay, o‘quvchi tomonidan anglashiladi”⁹,

⁹ Matnazar Abdulhakim. Misralardan taralgan ziyo // Oshiq Erkin. Muhabbatdan t‘yganim y‘q. – Urganch: Xorazm, 2008. – 116 b.

degan edi.

Daftarni bezar “alif”,
“Alif” kitobning naqshi.
Hammasidan shu qurg‘ur
Kallada bo‘lsa, yaxshi.

S.R.Ro‘zimboyev, B.S.Sadaddinovlarning “Oshiq Erkin – yor va diyor kuychisi¹⁰” monografiyasida ham Oshiq Erkin ijodi va shaxsiyati haqida keng mulohazalar yuritilgan bo‘lib, unda shoirning dostonlari va she‘riy asarlari “Tabiat manzaralariga bag‘ishlangan g‘azallar”, “Orifona g‘azallar”, “Oshiqona g‘azallar” va “Hajviy g‘azallar” kabi mavzu guruhlariga bo‘linib tahlil qilingan.

Oshiq Erkin asarlarining mavzu ko‘lami rang-barangdir. She‘rlaridagi peyzaj tasviri, yurtga, vatanga muhabbat tuyg‘ulari bo‘rtib turadi. Ayniqsa, O‘zbekiston, jumladan, Xorazm va boshqa joylar tarannumi xalqimiz qalbidan joy olgan. Sevgi, ishq-muhabbat, vafo kabi insoniy xususiyatlar Oshiq Erkin ijodining markaziy mavzusi hisoblanadi:

Etgudek yirtib yoqa rashk g‘unchalar,
La‘li nobing, yor, musaffo bunchalar.
Aql-u hushing olguncha shahdi oldida,
Shirin emas hatto asal ham bunchalar. [MTÏ, 43]

Oshiq Erkin yor labining go‘zalligini ko‘rib, g‘unchalar yoqasini chok qilishini qiyoslab, husni ta‘lil san‘atidan foydalanadi. Shuningdek, oshiq visolini asaldan ham shirinligini tasvirlab, qalb qo‘ri bilan ijod qiladi.

Bobning ikkinchi paragrafi “**Oshiq Erkin asarlari tilining badiiy so‘z boyligi va uslubiy o‘ziga xoslik**” deb nomlanadi. Oshiq Erkin o‘z g‘azallari va she‘rlarida butunlikni ta‘minlashga harakat qilgan. Uning g‘azallari va she‘rlari rang-barang, u o‘z salaflarida kuylanib kelingan mavzulardan yiroqlashib keta olmadi, ammo ularga yondashishda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ishq-muhabbat mavzusi Oshiq Erkin ijodida yetakchilik qiladi.

Shoirning oshiqona g‘azallariga yuzlanamiz:

Ey yonoqlari bolim, shamsiqamar hilolim,
Chehrasi chog‘im, olim, siyimitani hilolim. [KK, 19]

Oshiq Erkin g‘azallarining asosini oshiqona tuyg‘ular, yor ishqida bitilgan ohorli va jo‘shiqin misralar tashkil qiladi. Oshiqona g‘azallarda, eng avvalo, yor go‘zalligi vasf etiladi.

Shoirning *hajviy g‘azallaridan* “Voy-dod-ey” radifli g‘azali *yumoristik xarakterda* yozilgan:

Muhabbatda sitamlardan chiqmay qoldi boshginam,
Olib qo‘yib aql-u xushim bir mahliqo *voy-dod-ey, voy-dod-ey*.
Oshiq Erkin qiynaliblar ketdi ishqing dastidan,
Muhabbat dardiga hurdan topmay davo *voy-dod-ey, voy-dod-ey*. [H, 271]

Shoirning ushbu she‘ridagi naqoratlar misralardagi shoir shikoyatlarini hajviyona ohangda eshituvchiga yetkazishda asosiy vositadir.

Oshiq Erkin o‘z asarlarining mavzusini boyitishga harakat qilgan. She‘rlarida

¹⁰ Рўзимбоев С., Сададдинов Б. Ёр ва диёр куйчиси. – Урганч: Хоразм ёшлари, 2021. – 140 б.

peyzaj tasviri, yurtga, vatanga muhabbat tuygʻulari boʻrtib turadi. Oshiq Erkin asarlari tilini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish xalq madaniyatini avlodlardan avlodga yetkazishga qisman boʻlsa ham yordam beradi.

Non konseptining oʻzbek xalqi uchun aziz va muqaddasligi koʻpgina maqol va matallarda oʻz aksini topgan. Oshiq Erkin nonni quyoshga oʻxshatadi.

Non emas, yoʻq uni quyosh demogʻ lozim,
Hatto ushogʻidan lov-lov yondi ogʻzim. [БФ, 6]

Qarindosh-urugʻ, quda-andachilik munosabatlaridagi oʻzaro hurmat juda chiroyli ifodalangan. Er-xotinning munosabatiga quda tomon doim aralashavermaydi, yoshi ulugʻlar toʻplanib, muammoni hal qilishadi. Quyidagi bayta *dakki* – leksemasi Xorazm shevasiga xos boʻlib, “pand-nasihatchilik qilmoq” maʼnosida ishlatilgan. *Dakki* soʻzi pand-nasihatchilik qilmoqdan tashqari, “pand bermoq” maʼnosida ham qoʻllaniladi. Shoir dostonida sheva elementlarini qoʻllash orqali xalq ruhini ifodalagan. Dostonida *kadxudo* – (forscha – kad / kat / kadh – “uy”, “hovli”, “xonadon”; xudo – “egasi”, “sohibi” degan maʼnoni bildiradi) “el-yurt oʻrtasida gapi oʻtadigan keksa kishilar” ham tilga olingan:

Orasiga tushib yurmas qudalar,
Dakki berar toʻplanib *kadxudolar*. [БФ, 9]

Shoir Xorazm xalqiga xos boʻlgan frazeologik birliklardan goʻzal tarzda foydalangan. Barcha sohada chaqqon va oʻz kasbining ustasi boʻlgan insonlarning qilgan ishiga nisbatan *gulini chiqaradi* frazemasi ishlatiladi. Bu frazeologik birlik faqat Xorazm hududidagina ishlatilib, “birov ishni maʼromiga yetkazib, goʻzal tarzda yakunlamoq”, maʼnosini ifodalaydi:

Gulini chiqarar har toʻy, bazmning,
Axir, faxri erur u Xorazmning! [БФ, 14]

Shoirning “Oʻlguncha sizni derman” sheʼriy toʻplamiga kiritilgan *it* haqida oʻn beshdan ortiq bitiklar bitilgan. Maʼlumki, ruslarda *it* (salbiy hodisa bilan bir qatorda) sodiqlik, vafodorlik, oddiylikni assotsiatsiyalaydi. Beloruslarda salbiy xususiyatlarni (layoqatsiz, dangasa odamni) ifodalaydi; oʻzbek, qirgʻiz va boshqa turkiy xalqlarida *it* haqoratni bildiradi¹¹. Adib ijodiy faoliyati davomida hayotiy tajribalarga boy bitiklar ham bitgan bu bitiklarda *it* obrazi orqali turli xarakter-xususiyat ifodalangan: *Itning qoni almashdi nima-yu, almashmadi nima – yaratgan nasli ham baribir it-da. Buqa boʻlarmidi?* [ЎСД, 309] Ushbu bitik negiziga xalqimizning dunyoqarashi va hayotiy saboqlaridan kelib chiqqan “*Qazisan, qartasan asl zotingga tortasan*” iborasi singdirib yuborilgan.

Dumini koʻp likkillatgan itdan qoʻrq, poylab bir kuni xoda qilishi mumkin. [ЎСД, 309] Hayotda “Labbaychi” insonlar koʻp. Oʻsha insonlarga bir amallab mansab tegsa, yoki siz mansabdan tushsangiz, darhol dumini “xoda” qiladi. Bunday kimsalar oʻzlarini yaxshilik qilganday koʻrsatadi, ammo bir umr xato qilishingni poylaydi. Bu kabi falsafiy fikrlar adibning katta hayotiy tajribaga ega donishmand ijodkorligini yana bir bor dalillaydi.

Asarlarga qoʻyilgan sarlavhalar oʻquvchida asar mazmuni haqida dastlabki tasavvurni uygʻotish vazifasini bajaradi. Oshiq Erkin asarlarining sarlavhalari

¹¹ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2018. – B. 43.

sutruktur jihatdan 4 guruhga ajratib tahlil qilindi:

1. Soʻz shaklidagi sarlavhalar.
2. Soʻz birikmasi shaklidagi sarlavhalar.
3. Sodda gap shaklidagi sarlavhalar.
4. Parema shaklidagi sarlavhalar.

Oshiq Erkin ijodining mavzu doirasi boʻlgani sababli asarlarining nomi ham turli maʼno va mazmundagi soʻzlardan tashkil topgan:

1) harakat bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalangan sarlavhalar: “*Topolmaysiz*”, “*Topmadim*”, “*Aylamas*”, “*Aytayinmu?*”, “*Yoʻliqtirgʻay*”, “*Qoʻrqaman*”, “*Ketar*”, “*Erishgach*”, “*Yetkaz*”, “*Quvontirsango*”, “*Sogʻinaman*”, “*Kechirmaslar*”, “*Kelmasang*”, “*Asirma*” va boshqalar;

2) shaxs yoki narsa-buyum, mavhum tushuncha bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalangan sarlavhalar: “*Shohista*”, “*Nozlarindan*”, “*Turnalar*”, “*Oʻzbeqim*”, “*Xorazm*”, “*Beruniy*”, “*Gulim*”, “*Umid*”, “*Hazar*”, “*Murod*”, “*Erk*”, “*Istaging*”, “*Nazar*”, “*Kunduzim*”, “*Koʻnglim uchun*”, “*Koʻnglim*” kabi;

3) belgi-xususiyat bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalangan sarlavhalar: “*Goʻzal*”, “*Yaxshi-da*”, “*Mehribonim*”, “*Munofiq*”, “*Hasadgʻoy*” va boshqalar;

4) shaxsga ishora bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalangan sarlavhalar: “*San uchun*”, “*Sanmisan*”, “*Menga*”, “*Sening*”, “*Sen kabi*” va boshqalar;

5) payt maʼnosini bildiruvchi soʻzlar bilan ifodalangan sarlavhalar: “*Kechqurun*”, “*Kechalar*” va boshqalar;

6) miqdor anglatuvchi soʻzlar bilan ifodalangan sarlavhalar: “*Birgina*”, “*Oʻn sakkizimda*” kabilarni misol qilish mumkin.

Bulardan tashqari, shoir ijodida *undov soʻzlar* ham sarlavha vazifasida kelgan: “*Ibiyey*”, “*Ibi-ibi*” kabi. *Ibiyey* – hayrat maʼnosini ifodalovchi undov soʻz boʻlib, shu nomli sheʼr xalqimiz tomonidan sevib tinglanadigan mashhur qoʻshiqqa aylangan. Uni Ortiq Otajonov maromiga yetkazib ijro etgan. *Ibi* soʻzi ham adabiy tildagi iye undovining sheva varianti hisoblanadi.

Muallif ijodida tarkibida *qissa, hikoya, tarona* kabi indikatorlar mavjud asar nomlari ham bor. Bunga “*Qoraqalpoq qissasi*” sarlavhasi misol boʻla oladi. Shoir qoʻshiqbop sheʼrlari bilan mashhur boʻlgani hammamizga maʼlum. Ammo bu asarga qoraqalpoqlarning milliy anʼanalari, orol muammolari, Xorazm va qoraqalpoq xalqining doʻstona munosabatlari aks etgan doston, sheʼr va badialar kiritilgan. Shuningdek, “*Poʻlat va bobosi hikoyalari*” asari turli xil sarguzashtga boy hikoyalardan tashkil topgan. Boshqalardan farqli ravishda ushbu asarda *taronas* bibliionimik indikatorli sarlavhalari ham mavjud: “*Dostonbek taronasi*” (2018), “*Yuqoribogʻ taronasi*” kabilar kiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Oshiq Erkin asarlarining lingvopoetik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bob uch paragrafdan iborat. Bobning birinchi paragrafi “**Ijodkorning maʼno koʻchish usullaridan foydalanish mahorati**” deb nomlangan. Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga koʻchirish yoki koʻchma maʼnoda ishlatiladigan birliklar Oshiq Erkin ijodida ham sinestetik metafora sifatida qoʻllangan holatlar koʻp uchraydi:

Boʻlsa hamki, yaratganning sovgʻosi,

Yomon ekan muhabbatning savdosi.
Shirin xayollaring shirin g'am bosib,
Boshlarimni og'ritadi g'avg'osi.
Bir tashlab bo'yniga bilaklarimni,
O't olib boryotir yuraklarimni.

Ushbu misradagi *shirin xayol* birikmasidagi *shirin* leksemasi “go‘zal” ma’nosida, *shirin g'am* birikmasidagi *shirin* leksemasi “yoqimli” ma’nosida qo‘llanib, sinestetik metaforani yuzaga keltirgan.

Achchiq zarbingdan nechun oldin ogoh etmading,
Etak siltab bir yo‘la, ag‘yor sari ketmading,
O‘ksima Oshiq Erkin, gar murodga yetmading.

Na bir yayradim, kuldim, na-da mehringga qondim.

Sitamlaringdan har yili uch yuz oltmish kun yondim. [MTĤ, 58]

Achchiq zarb birikmasi tarkibidagi *achchiq* so‘zi, aslida, “og‘ir”, “kutilmagan” degan ma’noni anglatadi.

Shoir ijodi rang-barangligi bilan insonni zavqlantiradi, hayratga soladi. Ma’no ko‘chishining xilma-xilligi asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan:

Biz-ku mehmon bir-birovga, xonadondur bu vatan,

Bir-birovni qiynamaylik, *xonadon qiynalmasin*. [MTĤ, 40]

Yuqoridagi misrada *xonadon qiynalmasin* birikmasi tarkibidagi *xonadon* so‘zi *vatan* va unda yashovchi xalq ma’nosini anglatib, metonimiya hodisasini yuzaga keltirgan.

Shoir xalq orasida ko‘p qo‘llaniladigan sinekdoxadan unumli foydalangan:

Baxtliman deb urma dam, *tirnoqqa zorlar oldida*,

Bu qiyl-u qo‘lingni qo‘y, farzand shirin, farzand shirin. [MTĤ, 47] *Tirnoqqa zor* iborasi sinekdoxa hodisasi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, u inson tirnoqqa emas, farzandga zor.

Asaldek eritib suyaklarimni,

O‘t olib boryotir yuraklarimni. [MTĤ, 37]

Ushbu she’riy parchada shoir mubolag‘aning orginal ko‘rinishlaridan yana birini qo‘llaydi. *Asaldek eritib suyaklarimni* jumlasida asal – suyuq, suyak – qattiq shoir bu ikki narsani parallel ravishda qo‘llab mubolag‘a san’atini yuzaga keltirgan.

Bobning ikkinchi paragrafi “**Sinonimiya, antonimiya va paronimiyaning badiiy ifodadagi o‘rni**” deb nomlanib, unda sinonim, antonim va paronimlar nutqning go‘zalligi, ta’sirchanligini va tasviriyligini ta’minlovchi muhim vosita ekanligi ochib berilgan.

Oshiq Erkinning “Azizlar” dostonida *o'lmoq* leksemasining sinonimlari keltirilgan. Shoir ijodida leksemalar bilan birga frazeologik birliklar ham sinonimik qatorni boyitishga xizmat qilgan:

Barvaqt *chang soldi ajal* degan ganda,

To‘qson olti erdi yil *ko‘z yumganda*.

Chidamay farzand dog‘iga O‘g‘iljon,

Taslim etdi bir yil o‘tmay u ham *jon*.

Ona-bola kuylab bo‘lib bayotni,

Birin-ketin *tark etishdi hayotni*. [A, 33]

Ketma-ket kelgan baytlarda *chang soldi ajal, ko'z yumganda, jon taslim etdi, tark etishdi hayotni* kabi sinonimlar keltirilgan. Shoir ketma-ket kelgan baytlarda takroriylikdan qochish va ta'sirchanlikni oshirish uchun sinonimlardan mohirlik bilan foydalangan.

Ijodkor asarlarida antitezaning go'zal namunasi uchratish mumkin: "Avvalgining mazosin, so'nggi berar jazosin!"

Unutmas bul hikmatni aslo joni nisoring. [ЎСД, 32]

Antonimlar belgi bildiradigan so'zlar doirasida, ayniqsa, sifat va ravishlar orasida ko'p uchraydi. Yuqoridagi misrada ravishdan yasalgan (avval+gi) sifat so'zlari qarama-qarshi qo'llangan va leksik antitezani hosil qilgan. Baytdagi *mazo* hamda *jazo* so'zlari, aslida, bir-biriga qarama-qarshi qo'llanilmaydi. Ammo shoirning badiiy mahorati va so'zlardan mohirlik bilan foydalanishi natijasida kontekstual antonimlar hosil bo'lgan. Ularni mohirona qo'llash natijasida asarning ifodalilik, ekspressivlik va ta'sirchanligi ta'minlangan.

Paronimlar ijodkorning so'z tanlash mahorati, badiiy asarlaridagi so'z o'yinlarida namoyon bo'ladi:

Har kun dargohga intilib *saboh*,

Sidqidildan olar edi u *saboq*. [A, 9]

Baytda ikki asosiy paronim juftlik ko'zga tashlanadi. Saboh – "ertalab", "tong" ma'nosini bildirsa, saboq – "ta'lim", "dars", "ibrat" ma'nosini ifodalaydi. Ma'no h – q fonemalari orqali farqlanib, biri vaqt (tong), biri ma'naviy jarayon (dars)ni anglatadi. Bu paronimiya orqali shoir poetik matnda ma'no o'yinini yaratadi, ohangdorlikni kuchaytiradi va mazmuniy uyg'unlik ifodalaydi.

Quyidagi parchada ham ijodkor so'z o'yinidan mohirlik bilan foydalangan:

Buning uchun katta yurak *dil* kerak,

Hushyorlig-u, ham sehrigar *til* kerak. [A, 24]

Baytda *dil* va *til* asosiy paronim juftlik hosil qilgan. D – t tovushlari ma'no farqlovchi fonema hisoblanadi. Dil – "qalb", "tuyg'u", "ichki dunyo", til – "nutq a'zosi", "ifoda vositasi" hisoblanadi. Paronimlar orqali shoir ichki dunyo (*dil*) va tashqi ifoda (*til*) o'rtasidagi uyg'unlikni poetik shaklda ko'rsatadi. Uning fikricha, biror katta ishni amalga oshirish uchun avvalo dil, ya'ni iroda, toza niyat, jasorat, so'ng til, ya'ni so'zlash mahorati, elga ta'sir eta olish kerak. Bu ikki tushuncha parallel ravishda qo'yilib, ma'no kuchaytiriladi. Paronimlar orqali yaratilgan tasviriylik qahramonning ruhiy kuchi va so'z qudratini bir vaqtda ko'rsatadi. Shoir katta ishga qo'l urish uchun qalb qudrati ham, so'z qudrati ham birdek zarur degan g'oyani juda ixcham, ohangdor va poetik shaklda ifodalagan.

Bobning "Oshiq Erkin asarlarida ekspressiv-sintaktik vositalar" tarzida nomlangan uchinchi paragrafi besh bo'limdan iborat bo'lib, badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi vositalarning Oshiq Erkin ijodida qo'llanilishi tahlilga tortilgan.

Shoir ijodidagi fardlarda ham ekspressiv-sintaktik vositalardan mohirlik bilan foydalangan:

Xoli bilma cho'pni ham,

Yolg'izni ham, ko'pni ham. [ЎСД, 307]

Ushbu baytda “ham” bog‘lovchisining uch marta takrorlanishi ekspressivlikni kuchaytiradi. Bu takror ma‘noni kuchaytirish uchun ishlatilgan gradatsion ta‘sirga ega. Takror baytning ritmini yaratadi va fikrni bosqichma-bosqich kuchaytiradi. *Cho‘pni ham / yolg‘izni ham / ko‘pni ham* baytda uchta bir xil sintaktik shakl takroranadi. Bu orqali baytga ohangdorlik va obrazlilik beradi hamda ta‘sirchanlikni oshiradi. *Cho‘p* – “eng arzimas narsa”, *yolg‘iz* – “yakka”, “yolg‘izlik”, *ko‘p* – “ko‘plik”, “jamlik” ma‘nolarini ifodalab, bosqichma-bosqich kengaytirilishi fikr kuchayishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, misrada inversiya va ellipsis hodisalari ham mavjud.

Paragrafning birinchi bo‘limida jonlantirish san‘atining shoir ijodidagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Oshiq Erkin “Qo‘sha zulfing” she‘rida ham jonlantirish san‘atidan mohirlik bilan foydalangan:

Bo‘lg‘usi bir yo‘l ko‘rib sunbullarning yuzi ol,
Kokillarni *uyolib*, *yig‘nab* olar majnuntol,
Bu ne balo bir afsun, bu ne balo qiyl-u qol,
Chok etadur ko‘ksini *rashk qila* ko‘kda hilol,
Bu sening zar kokiling, dilbarim, ipak misol,
Biri la‘lgun, biri gulgun yor seni qo‘sha zulfing. [MTĬ, 113]

Yorning sunbul sochlarini ko‘rgan majnuntol uyalganidan “kokil”larinining *yig‘nab* – “*yig‘ib oladi*”. Keyingi misrada ham hilolning ko‘ksini *chok etishi va rashk qilishi* oshiqqa xos xususiyatlar oy misolida jonlantirilgan. Insoniy his-tuyg‘ular bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Bu misralarda jonlantirishdan tashqari, o‘xshatishdan ham foydalanilgan. Oynning ko‘ksini chok etgandagi holati oynning yuzidagi dog‘ga o‘xshatilgan. Shu she‘rning keyingi bandida esa tun va yorning qaro sochi qarolikni *taloshadi*.

Paragrafning ikkinchi bo‘limida Oshiq Erkin asarlarida takrorning go‘zal namunalari tahlilga tortilgan. *Qo‘ymodingiz, qo‘ymodingiz*” she‘rida xorazmliklarga xos bo‘lgan yuksak iltifot, o‘ziga yaqin insonlarga qilinadigan ehtirom va taklifga javob tarzida aytiladigan nutqiy etiketni she‘riy misralarda takror qo‘llash orqali kuchli emotsiya ifodalangan:

Gaplashaylik, yuring bir dab, *qo‘ymodingiz, qo‘ymodingiz*,
Go‘zal suhbat quring bir dab, *qo‘ymodingiz, qo‘ymodingiz*. [MTĬ, 57]

Assonans hodisasi fonetik takror hisoblanishi bilan alliteratsiyaga yaqin turadi, biroq unli tovushlarning takrorlanishi natijasida vujudga keladi. Shoirning “O‘ynoli”ga o‘ynoli” she‘rida ham gorizontol, ham vertikal shakldagi assonans hodisasi qo‘llangan:

O‘ynamagan qolmasin, “Lazgi” tushib tolmasin,
“O‘ynoli”ni yaratgan Omon akang o‘lmasin.
“O‘ynoli”ga o‘ynoli, o‘ynomoqni qo‘ymoli. [MTĬ, 70]

Paragrafning uchinchi bo‘limida Oshiq Erkin ijodida qo‘llangan sintaktik parallelizm hodisasi tahlilga tortildi.

Har lahza, har on, har soat
Sevgingdan olsam manfaat.
Tun bo‘yi olsam manfaat,
Bir umr olsam manfaat! [ŸCD, 65]

Yuqoridagi bandeda qo‘llangan parallel birliklar orqali shoir o‘zi aytayotgan fikrga o‘quvchining diqqatini birinchi misradanoq torta olgan. Ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Sintaktik parallellik orqali asosiy ta‘kid vaqt ma‘nosini bildiruvchi so‘zlarga tushgan.

Oshiq Erkin ijodida tardi aks san‘atini hosil qilgan misralar ham ko‘p uchraydi:

Ko‘nglim asiridur ul ikki qunduz

Kamon qoshlaringni, qoshi kamonim. [ЎСД, 39]

Bu misradagi *kamon qoshlaringni, qoshi kamonim* aks tarzda qo‘llanib takror hosil qilgani shoir ijodining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Shoirning ko‘plab she‘rlarida sintaktik parallelizm va gradatsiya hodisasi yuz berganligi uchun o‘ziga xos ritm va ohangdorlik hosil qilgan. Shuning uchun ham “Sog‘inaman” she‘ri xalqimizning sevimli xonandasi Otajon Xudoyshukurov tomonidan kuyga solinib, maromiga yetkazib ijro etilgan. She‘rdagi *o‘lturaman, o‘ylonaman, to‘lg‘onaman va yonaman* leksemalari orqali shoir harakat va holatni bir misrada ketma-ketlikda birlashtira olgan. Oshiqning ichki kechinmalari va ruhiy holatiga mos musiqa tanlangani uchun bugungi kunda ham xalqimiz tomonidan sevib tinglanadi va ko‘plab san‘atkorlar tomonidan ijro etiladi.

Xayollarim olding meni, ne kuylarga solding meni,

Barbod etib halovatim, dil torlarim cholding meni.

O‘lturaman, o‘ylonaman, to‘lg‘onaman ham yonaman. [МТЎ, 67]

Paragrafning to‘rtinchi bo‘limida Oshiq Erkin she‘rlarida okkazonalizmlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘lib o‘rganildi.

Ijodkorning “Chaqqoq” dostonida ham bir qator okkazonalizmlar keltirilgan:

... – Bu juda jiddiy gap, *ipdash*, – dedi unga tik qarab. – Vaqtli revolyutsion komitetning qarorini bajarish siz uchun ham, men uchun ham qonun... [Ч,103] Ushbu parchada qo‘llangan *ipdash* okkazonal birligi adabiy tildagi “o‘rtoq”, “tengdosh” ma‘nolarini ifodalovchi birlik bo‘lib, inqilobiy davr muhitini anglatuvchi murojaat birligi sifatida qo‘llanilgan. Adib davr ruhini aks ettirish maqsadida bu davr tizimidan chetga chiqmaslik kerakligini alohida ta‘kidlash uchun *ipdash* topilmasidan foydalangan.

Oshiq Erkin Navoiy asarlaridan ilhomlanib, o‘ziga xos bir bayt yozgan. E‘tiborlisi shundaki, noodatiy shakldagi *telbalik fasling* birikmasi okkazonallikni hosil qilgan. Bu orqali shoir, nafaqat, ishq-muhabbatga to‘lgan balog‘at davrini, balki umrning har bir bosqichida ishqdan lazzatlanishni nazarda tutgan. U umrining oxirigacha, muhabbat haqida she‘rlar bitgan.

Zinhor *telbalik fasling* o‘tmasin ishqda beshon,

Ardoqla muhabbatda har lahza, har oning. [ЎСД, 53]

Yangi yasalmalar ommalashib ketmagan taqdirda ham, uning shu matnda ta‘siri bo‘lishi, shubhasiz. Negaki, u hissiyotni yangicha tarzda ifodalaydi, yangi ma‘no aks ettiradi. Oshiq Erkin she‘rlaridagi okkazonalizmlar ham yangi semantik ottenkalarining paydo bo‘lishiga asos yaratib, matnda ma‘lum bir uslubiy vazifani bajarishga xizmat qilgan. Misrada qo‘llangan okkazonalizmlar shoir bizga anglatmoqchi bo‘lgan ma‘nolarni to‘la yetkazib bergan.

Paragrafning beshinchi bo‘limida adib asarlaridagi o‘xshatishlarning o‘ziga

xos xususiyatlari aniqlangan.

Shoir ijodida yorning sochni o‘rish jarayoni leksik vosita yordamida *quyunga* o‘xshatilgan. Bilamizki, *quyun* – qattiq uyurmali shamol, uyurma¹² degan ma’noni bildiradi. Keyingi misrada esa yorning sochi *yaldo tunidek qora* deya ta’riflangan. *Yaldo kechasi* – 21-dekabrda 22-dekabrga o‘tar kechasi eng qisqa kun va eng uzun tun (17 soat) sodir bo‘ladi. Qishning bu eng uzun va qorong‘i kechasi Yaldo kechasi deyiladi¹³. *Yaldo kechasi* leksemasi orqali yorning sochi naqadar uzun va tim qoraligi yaqqol ifodalangan. *Quyundan ham fuzundir* deya bu ta’rif yanada mubolag‘ali tarzda isbotlangan. Yorning sochlari shu qadar uzunki, uzunlikda arshundan¹⁴ ham uzundir uzunligi Jayhun va Sayhun misolidir deya ma’noni kuchaytirgan holda tasvirlagan:

O‘rsang agar shonalar *bamisoli quyundir*,
Yaldo tuniday qora quyundan ham fuzundir,
Qirq kokiling qirq quloch, arshundan ham uzundir
Oliy bu jilvagarlik hush olguvchi fusundir,
Oshiq Erkinni Majnun aylagan shu husndir,
Biri *Jayhun*, biri *Sayhun* yor seni qo‘sha zulfing. [MTIO, 113]

Oshiq Erkin “Olmalarga o‘xshataman” she’rida mahbubani turli mevalarga o‘xshatgan. Yorning yuzini *olmaga*, ko‘zini *charosga*, yorning o‘zini *anor*, *uzum* va *anjirga* qiyoslagan. Ko‘plab shoirlar ijodida yuqoridagi o‘xshatishlarni uchratish mumkin, ammo shoir ijodidagi xususiy o‘xshatishlardan biri bu *anjir* o‘xshatishidir. Anjir mevalarning ichida eng shirini bo‘lgani bois, shoir yorini anjirga o‘xshatadi. Xorazmda shiringina, chiroyli qizchalarga nisbatan ham “anjir qizcha akan”, “anjir shu” va “anjirim” kabi ekalash shakllari va murojaat birliklari qo‘llaniladi. Shuningdek, maromiga yetib, mazali bo‘lib pishgan taomga nisbatan “anjir bo‘libdi” va “anjiri chiqibdi” kabi birliklaridan foydalaniladi. She’rdagi *anjir* leksemasi orqali esa alohidalik, ta’kid ma’nosi ifodalangan va ohangdorlik hosil qilgan:

Bir dunyo quvondim ko‘ray deb baham,
Do‘stlar, yayrab oldim qo‘limga qalam.
Husn-u malohating madh etay men ham,
Kuylaganim soyi ochilar baham.
Yuragimning tillo zanjirisan san,
Qizlarning ichida *anjirisan* san. [MTY, 56]

Oshiq Erkinning ko‘plab she’rlarida o‘xshatish ma’noli iboralarni ham uchratish mumkin:

Ko‘pdan xayolimda yaxshi gap yashar,
Jamoling eslasam yuragim jo‘shar.
Balkim, ikkimizning taqdirimizni
Aytayin deganim o‘sha gap qo‘shar.
Asal shu so‘zimni galsang aytaman,
Galmasang uzaver mendan tamani,

¹² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. IV jild. – Toshkent: G‘.Gulom, 2022. – B. 106.

¹³ <https://geografiya.uz/muhim-va-mashhur-sanalar/11403-21-dekabr-yaldo-kechasi-va-qishki-chilla.html>

¹⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildlik. IV jild. – Toshkent: G‘.Gulom, 2022. – B. 117.

Sendan *daryo qaytgan kabi* qaytaman,
Yaxshi bir gapim bor, galsang aytaman. [MTĤ, 91]

Shoir ijodida Xorazm hududiga xos bo'lgan iboralar vositasida hosil qilingan o'xshatishlardan *daryo qaytgan kabi* iborasi orqali ifodalagan ma'no oddiy so'zlar vositasidagi o'xshatishlardan ko'ra kuchliroq va ta'sirliroq ifodalangan. Bilamizki, daryo qaytsa, ya'ni suvi kamayib, suv sohildan ancha uzoqlashib ketadi. Insonga xos bo'lgan *bir so'zlilik, gapidan qaytmaslik, aytgan gapining ustidan chiqish* o'zbek millatiga xos xususiyatlaridandir. O'zbek yigitlariga xos bo'lgan bunday o'xshatishni shoir ibora orqali she'riy misralarga mohirlik bilan singdirib yuborgan. She'riy misralar tarkibidagi mazmunida oshiq agar ma'shuqasi kelmasa, undan butkul voz kechishini ta'kidlaydi.

Oshiq Erkin ijodida yana *tillo topgan qul kabi* iborasi orqali ham o'xshatish hosil qilingan. *Qul* nogahon tilla topib olsa, qay darajada quvonadi. Shoir quvonchini odatiy so'zlarda ifodalamay, qulning o'sha holati aks etgan ibora orqali tasvirlagan. Bayt mazmunida yor oyog'ini oshiqning ko'zlari ustiga qo'ysa, o'sha quvonchni his qilishi aks etgan. She'rdagi *tilla topgan qul* iborasi ham, asosan, Xorazm hududiga xos bo'lib, faol qo'llaniladi.

Zavq olarman o'zda yo'q, *tillo topgan qul kabi*,
Diydalarim ustiga gar qo'ysang qadamingni. [MTĤO, 70]

Paragrafda Oshiq Erkin ijodida o'xshatishning original namunalari sifatida *qil kabi, qilcha, choldek, qumri kabi, gul bargidek, bamisoli quyundir, yaldo tuniday, asov daryo kabi, biri Jayhun, biri Sayhun va o'ymoqdek* kabilar, shuningdek, an'anaviy o'xshatishlardan *kumushdek, bolday, tog'day, misli ipak* kabilar tahlil qilindi. Shoir o'zining so'z qo'llash mahoratini original topilmalar orqali yaqqol ifodalay olgan. O'xshatish hosil qilishga xizmat qiluvchi unsurlarni so'z va iboralar tarkibida birdek qo'llay olgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Oshiq Erkin asarlari tilining lingvokulturologik xususiyatlari”** deb nomlanib, unda xalqimizning milliy mentalitetini ifodalovchi frazeologik, dialektologik va onomastik birliklar tahlilga tortilgan. Bobning **“Frazeologizmlar”** paragrafida adabiy til va shevadagina qo'llanadigan frazeologik birliklar tadqiq qilingan.

Og'ritsang agar dilni, yo ko'zga ilsang birni,
Mendan ham ko'r jabrni, sendan kechganim bo'lsin,
Oq tovba, qora tovba. [MTĤ, 79]

Shoir ijodida iboralarning salmog'i juda keng. Yuqoridagi misrada ikkita ibora yonma-yon qo'llanilgan. *Dilni og'ritmoq* iborasi *“ranjitmoq”, “xafa qilmoq”, “ozor bermoq”* ma'nolarini bildiradi. Bu frazema tarkibidagi *dil* so'zi *ko'ngil* bilan sinonim munosabatda qo'llangan.

Yuqoridagi misralardagi *oq tovba, qora tovba* iborasi “qat'iylik” ma'nosini bildiradi. Xorazm shevalariga xos *“illo-billo” (hech)* so'ziga teng bo'lib, aytgan gapidan qaytmaslik, va'dasining ustidan chiqishni tasdiqlash uchun ishlatiladi. Bu ikki birikma xalq og'zaki ijodidan kelgan. *Oq tovba*, – ya'ni “chin, sof halol tavba”, qaroridan qaytmaslikni anglatadi. *Qora tovba* “kuchli qasam”, mutloq voz kechish, o'ta jiddiy tovba ma'nosini bildiradi. Qat'iylik, jiddiylik, qattiq hukm ifodasini anglatadi.

Iboralar ko‘pincha obyektни tavsiflab ko‘rsatadi. Bunday paytda so‘zlovchining munosabati aniq, ijobiy yo salbiy bo‘ladi. Shunga qarab, baholash ma‘nosi ham ijobiy yoki salbiy bo‘ladi. Birinchi misrada *ko‘zga ilsang* iborasi orqali oshiq ma‘shuqaga “ogohlantirish” berayotgan bo‘lsa, ag‘yordan ma‘shuqani rashk qilish tuyg‘usini ifodalagan. *Ko‘zga ilmay ishqimni rad etar bo‘lsang* jumlasida asosiy obraz sifatida oshiqning o‘zi gavdalanadi. *Ko‘zga ilmoq* frazemasining sinonimi bo‘lgan *nazariga ilmoq* ham shoir ijodida uchraydi.

Bilolmayin qoldim, aybim nedirki,

Oyog‘imdan cholding, yuragim, nechun? [КГ, 6]

Yuqorida *oyog‘imdan cholding* frazemasini tarkibidagi *cholmoq* sheva so‘zi adabiy tilida *chalmoq* tarzida ishlatiladi. Shoir shunday frazemani metaforik tarzda qo‘llaganki, insonga xos salbiy xususiyatni inson a‘zosiga yuklagan. Lekin bu sema orqali salbiy ma‘no emas, balki shoirning ishq dardiga muhtalo bo‘lganini anglatadi. Ijodkor oddiy “*sevib qoldim*” birikmasidan ko‘ra *oyog‘imdan cholding* frazemasini afzal ko‘radi.

O‘ldirmaka yuragimni qurtini,

Tovlab galsa bo‘lmasman burtini,

Shu go‘rganda so‘ramabman yurtini,

Izlab chiqdim necha qishloq qal‘ani,

Endi nerdan topoman shu bolani. [МТЙ, 82]

Misra tarkibidagi inversiyaga uchragan *o‘ldirmaka yuragimni qurtini* frazeologizmi qo‘llangan bo‘lib, unda *o‘ldirmoq* fe‘li oldinga o‘tgan va mantiqiy urg‘u olgan. Barqaror birikmaning asl ko‘rinishi *yuragini qurtini o‘ldirmoq* “ko‘ngildagiday ish qilmoq” (ishni mohirlik bilan tez ado qilmoq) ma‘nosini ifodalaydi.

Xalqimizda “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” degan maqol bor. Oshiq Erkin quyidagi she‘rida shu maqolga ma‘nodosh bo‘la oladigan birlik qo‘llagan.

O‘sma ketar-ku qosh qolar, do‘ppi ketar-ku bosh qolar,

Jonim, Oshiq Erkin bilan gaplashmasinmu boshqalar?

Jonim, barchaga rashk etar shu odating yomon sening. [МТЙ, 69]

Shoir bu she‘rdagi *do‘ppi va o‘sma* leksemalari orqali insonni tashqi go‘zalligini ravshanlashtiruvchi narsalarni nazarda tutsa, uning asliyati esa *qosh va bosh* leksemalarida namoyon bo‘ladi. Insonning qalbi go‘zal bo‘lsa, boshqa narsaning keragi yo‘q, nazarimizda. Xalqimiz tomonidan yaratilgan maqolning ma‘nosi yanada kengaytirilgan. Shoir shunchaki she‘rni mazmunan boyitish uchun emas, xalqimizning milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi chinakam insoniy fazilatlarini boshqalarga yetkazish uchun ham iboralardan unumli foydalangan.

Bobning ikkinchi paragrafi “**Dialektizmlar**” deb nomlangan bo‘lib, unda shevaga oid leksik birliklar orqali milliylik ifodalanishi tadqiq qilingan.

Dialektizmlar, umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo‘lib, asosan, jonli so‘zlashuv nutqiga xos leksemalar hisoblansa-da, ulardan badiiy adabiyot tilida foydalanishga ham e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun ham, tilshunoslikka oid ko‘pgina tadqiqotlarda dialektizmlar umumxalq doirasidagi nutq turi sifatida qarab kelingan va adabiy til me‘yorlariga mos holatlarda qo‘llanilishi haqida fikrlar

bildirilgan¹⁵.

Shoir ijodida yuqoridagi misralarga hamohang, Xorazm shevalarida kundalik soʻzlashuvda ishlatiladigan nutqiy odat undov soʻzlarini nasriy va nazmiy asarlarida birdek qoʻllay olgan. Oshiq Erkinning Xudoybergan Devonov xotirasiga bagʻishlangan “Chaqmoq¹⁶” hujjatli qissasida ham Xorazm shevalariga oid dialektizmlar talaygina.

– *älāštirmänj* [alashtirmang], shoir... Bu... xayollar bilan boʻlib, koʻrmay qolibmiz... [Ч, 52] Misolda keltirilgan *alashtirmoq* dialektizmi Xorazm shevalarida faol mulozamat soʻz boʻlib, “aybga qoʻymoq”, “ayblamoq”, “gunohkor qilmoq”¹⁷ maʼnosini anglatib, “kechiring”, “uzr” degan mazmun ifodalash uchun qoʻllangan.

Onajon *apabijimi* [opabiyimni] koʻzi yorigan ekan, kelin bilan chol-kampir *goz aydinä* “goʻz oydin”ga ketishgan. [Ч, 41] Xorazmda yangi chaqaloq tugʻilsa, qudalar va qarindosh urugʻlar “goʻz oydin”ga, chaqolaq tugʻilgan uyga, keyin esa kelin yoki qizning ota-onasinikiga tabriklab borilishiga aytiladi. “goʻz oydin”, yaʼni adabiy tildagi *muborak boʻlsin* mazmunida bir-birlarini tabriklashadi. Yana toʻy harakatlari boshlanganda ham “goʻziz oydin”, “charchamang” va “oʻng boʻlsin!” degan tilaklar ham bildiriladi. Bu birliklarda Xorazm vohasi xalqiga xos milliy anʼanalar oʻz ifodasini topgan.

Xorazm kiyim-kechaklarini ifodalovchi soʻzlar ham oʻziga xos boʻlib, boshqa joyda uchramaydigan *çogirmä, täqija, taxya* [choʻgirma, taqiyo / taxyo] bosh kiyimlari hududning oʻziga xos madaniyatini aks ettiruvchi lingvokulturemalari hisoblanadi. *Taxja, taxja* [toxyo taxyo] (doʻppining nomlanishi) bir xil boʻlsa-da, materiali, naqshlari va tayyorlanish usuli bilan farq qiladi.

Pardozlab qoshi yosini, egri qoʻyib *taqja* [taqyosini],

Lol etib ishq daryosini kelishni koʻr, kelishni koʻr,

Yurishni koʻr, yurishni koʻr. [MTЮ, 76]

Bu misradagi *taqyo* ayollar bosh kiyimi hisoblanib, bugungi kunda kundalik tadbirlarda va toʻy-marosimlarda kiyiladigan qator turlari bor.

... Bu yerda turgan sheroziy barra çogirmälik [choʻgirmalik], chehrasi issiqqina notanish yigitga koʻzi tushib, u bilan bosh irgʻrab salomlashdi-da, hamkasbiga yuzlandi. [Ч, 68]

Xorazm milliy yegulik va taomlarini aks ettiruvchi dialektlar ham shoir asarlarida oʻz aksini topgan.

Tarovatlar tarab gul jamolidan,

Bir xabar olay deb elning holidan,

Tortiq etib elning *sümälägï, balidän* [sumalagi, bolidan]

Yana bahor keldi bagʻringga, yurtim. [MTЮ, 11]

Ushbu misradagi *sümäläk* [sumalak] leksemasi nafaqat Xorazm, balki butun oʻzbek xalqi uchun aziz taom hisoblanadi. Faqat undirilgan bugʻdoy shirasi va

¹⁵ Худойбергенов Р.Ю., Ўрозова Н. Хоразм шеваларидаги фразеологимларнинг ўрганилишига доир // Филологик тадқиқотлар. – Урганч, 2011. – Б. 67.

¹⁶ Ошиқ Эркин. Чақмоқ. – Тошкент: Фафур Гулом, 1988. – 124 б.

¹⁷ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиси нашриёти, 1961. – Б. 23.

undan tayyorlanadigan bu taom milliy bayramimiz Navroʻzda va shu bayram arafasida koʻpchilik bilan tayyorlanadi. Xalqimiz niyat qilib, sumalakka mayda toshlarni solishadi. Ushbu taomni har kavlaganda niyat qilinadi. Tugʻmay yurgan kelinlar boʻlsa, irim qilib, sumalak pishayotgan qozon atrofini yetti marta aylanib, niyat qilsa, farzandli boʻladi, degan qarashlar ham bor. Sumalakni toʻyib yegan odam yil boʻyi kasal boʻlmaydi, deyishadi. Yuqoridagi misrada qoʻllangan *bol* ham ming dardga davo hisoblanadi. Xorazmda *asalning* sinonimi sifatida *bol* soʻzi ishlatiladi. Shoir oʻquvchiga taʼsirli boʻlishi uchun ham bol dialektizmidan foydalangan. Sumalakni bolga qiyoslagan.

Ushbu paragrafda Oshiq Erkin oʻz asarlari tilida qoʻllanilgan *däpsinişib* [dapsinishib], *badimni* [bodimni], *bürtini* [burtini], *čiqanlarıñni* [chiqonlaringni], *häväsini gätirib* [havasini gätirib], *äsirib* [asirib], *dadimas* [dodimas], *manlajı* [manglayi] *şor* [shoʻr], *säs* [sas], *čalip* [cholip] kabi koʻplab dialektizmlar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi.

Bobning uchinchi paragrafi **“Onomastik birliklar”** deb nomlangan.

Oshiq Erkin asarlarida qoʻllangan antroponimlar va bibliionimlarda pretsedentlik xususiyati koʻproq namoyon boʻladi:

Adib ijodida tarixiy shaxs nomi faol qoʻllanilgan:

Tuzib Aminaddin koʻp yaxshi tadbir,

Chiqarmoqqa tushdi birma-bir.

Ilohdan kuch berdi *Hazrati Dovud*,

Qad koʻtardi dastlab katta bir zavod.

Hazrati Dovud Qurʼonda nomi zikr etilgan paygʻambarlardan biri. Yahudiy va xristian diniy adabiyotlarida David nomi bilan maʼlum boʻlgan. Qurʼonda yozilishicha, “Alloh unga podshohlik, paygʻambarlik va oʻzi xohlagan narsalaridan taʼlim berdi”¹⁸. Hazrati Dovud bilan bogʻliq temir eritish moʻjizasi, usta hunarmand, adolatli podshoh va ilhom beruvchi kuch-quvvat kabi asosiy madaniy assotsiativ maʼnolarni ifodalaydi. Ijodkorning mahorati tufayli “zavod qad koʻtardi” degani ham bevosita Dovud bilan bogʻliq moʻjizaviy temirchilik anʼanasiga ulanadi.

“Jayhun jilovdori” dostonida Xiva xoni Feruz nomi ham koʻp bora qoʻllanilgan. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Gapni *Feruz* zamonidan aytayin,

Uzoq ketmay qisqasidan qaytayin. [ЖЖ, 9]

Feruzga qarindosh edi *Matniyoz*,

Amaldorlar ichra sodiq va mumtoz. [ЖЖ, 10]

Shu xat bois chiqib Feruz firogʻi,

Ketdi qoʻldan Amuning oʻng qirgʻogʻi [ЖЖ, 13]

Muhammad Rahimxon II (1863-1910) Xiva xonligida hukmdorlik qilgan. Uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati olib borgan. Asarda tarixiy shaxslarning qoʻllanganligi uning badiiyligini oshirgan. Chunki nomlar badiiy asarning eng muhim poetik komponenti ekanligi fanda eʼtirof etilgan haqiqatlardan biridir. Feruz ismi pretsedent birlik sifatida oʻzbek madaniy xotirasida “maʼrifat,

¹⁸ Курони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Алоуддин Мансур таржимаси) – Бишкек, 2001.–768.

adabiyotga e'tibor, san'at taraqqiyoti, xonsaroy adabiy muhiti va mumtoz she'riyat an'analari bilan bog'lanadi "Feruz zamoni"– pretsedent vaqt birligini ifodalaydi. Bu nom she'r kontekstida darhol muayyan tarixiy davr va ma'naviy atmosfera haqida tasavvur uyg'otadi. Asarning tarixiy ishonchliligini kuchaytirib, adibning aytmoqchi bo'lgan fikrini o'tmish tajribasi bilan bog'laydi. O'quvchida bu voqea "jiddiy, tarixiy, ibratli" degan assotsiatsiyani uyg'otadi.

Shoirning Beruniy haqida yozgan bag'ishlovda ham onomastik birliklardan foydalanilgan. Tarixiy antoponimlar *Nuh, Qutayba, Jaloliddin, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Iroq, Hammor, Miskavayx, Masihiy, Muso, Muhammad, Pifagor, Gelen, Gipparx, Arastu, Evklid, Batlimus, Aflotun, G'aznaviy, Kopernik va Beruniy* nomlari asar mazmunida Beruniy shaxsini yoritishda yaqindan yordam bergan.

Bibliyonim nomlar: "*Avesto*", "*Aljabr*", "*Hindiston*", "*Xorazm tarixi*", "*Qonuni Mas'udiy*" va "*Yodgorliklar*" nomlari keltirilgan.

Tadqiqotda Oshiq Erkin asarlarida qo'llangan ko'plab Feruz, Yusuf daroz, Yusuf oxund, Horundek, Dovud, Hotami Toyi, "Iqboli Feruz", "Taviz ul oshiqin", "Nasihatnoma" kabi onomastik birliklar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi.

XULOSA

1. O'zbek tilshunosligida badiiy matnni antroposentrik yondashuv, xususan, lingvopoetika va lingvokulturologiya kesishmasida tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Oshiq Erkin asarlari tilining estetik imkoniyatlari hamda milliy ruhini ilmiy-tanqidiy baholash tilimiz taraqqiyoti tarixini va ijodkorning individual uslubini yoritishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

2. Oshiq Erkin lisoniy vositalardan mohirona foydalangan va o'ziga xos, uslubni yarata olgan. Uning so'z tanlash mahorati, turli takrorlar orqali qo'shiqbop kuylar yaratishi, har bir misraga xalqona ohanglarni singdirib yuborishi, mavzu ko'lamining kengligi asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, adib asarlarining sarlavhalari struktur-semantik jihatdan o'ziga xoslikka ega. Shoir ijodida qo'llangan so'z, so'z birikmasi, sodda gap va parema shaklidagi sarlavhalardan tashkil topgan. Ularning turli til vositalaridan tashkil topishi uning nom tanlashdagi imkoniyatlarini yoritib beradi.

3. Oshiq Erkin she'rlaridagi ta'sirchanlikni oshirish, misralarning o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida *xonadon qiynalmasin, la'li lab* kabi metonimik shakllangan birliklar; *shirin xayol, shirin g'am, achchiq zarba, yengil tabassum* kabi sinestetik metaforalar; *tirnoqqa zor, lab, bosh, yurak-bag'ir* kabi sinekdoxalar va *asaldek eritib suyaklarimni, o'ymoq* kabi o'xshatishlarning o'ziga xos ko'rinishlaridan unumli foydalangan.

4. Tildagi so'zlarning ma'lum qismi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra o'zaro aloqador butunlikni tashkil etadi. Oshiq Erkin asarlarida ham sinonimiya, antonimiya va paronimiya hodisalari asar badiiyatini oshirishda muhim rol o'ynagan. Shoirning so'z o'yinlari yarata olish mahorati *g'o'r va zo'r, mazo va jazo; faqir va paqir* misollarda to'la namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sinonimlarning qo'llanishida vafot etmoq leksemasining *tark ayladi olamni, chang soldi ajal, ko'z*

yumganda, jon taslim etdi, tark etishdi hayotni, vafot etmoq, o'lmoq va juvonmarg qilmoq kabi o'nga yaqin sinonimik qatori keltirilgan.

5. Oshiq Erkin ijodida badiiy adabiyotning muhim unsuri hisoblangan intoq va jonlantirish san'ati *dunyoning yosharishi, saboning erkalanishi va soz chalishi, oyning ko'ksini chok etishi va rashk qilishi* hamda *shoirning yulduzlarni so'roqqa tutishi* kabi misollar orqali dalillangan.

6. Oshiq Erkin she'riyatining o'ziga xos musiqiyliigi, qo'shiqbopligi va jozibadorligini ta'minlashda fonetik vositalar, xususan, alliteratsiya va assonans hodisalari betakror uslubiy vazifa bajargan. Shoir o'z misralarida unli va undosh tovushlarning uyg'un va gorizontaal, vertikal takrorini qo'llash orqali o'quvchining ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi kuchli ekspressiv-emotsional ohangdorlikni muvaffaqiyatli yuzaga keltirgan.

7. Oshiq Erkin asarlari hozirgi o'zbek tilining imkoniyatlari, uning nozik ma'no qirralarini namoyon eta olgan. Bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so'zni mohirona qo'llash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar orqali uning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, shoir asarlaridagi okkazonalizmlar o'ziga xos tarzda qo'llanganki, ular o'zining g'ayriodatiyligidan tashqari, obrazlilikni yaqqol ta'minlaganligi sababli ham o'quvchi tasavvurini boyitishga, she'r mazmunini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

8. Oshiq Erkin she'riyatida an'anaviy va xususiy-muallif o'xshatishlarining keng ko'lamda, ohori to'kilmagan shakllarda qatnashishi ijodkor tasavvur dunyosining naqadar boy va keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Adib asarlarida obrazlilikni kuchliroq ifodalash uchun an'anaviy va xususiy o'xshatishlar mohirlik bilan foydalanagan. Jumladan, uning asarlarini o'ziga xosligini aks ettiruvchi *qil kabi, qilcha, choldek, qumri kabi, gul bargidek, bamisoli quyundir, yaldo tuniday, asov daryo kabi, biri Jayhun, biri Sayhun, anjir kabi, o'ymoqdek* kabi misollar tahlilga tortilgan bo'lsa, *kumushdek, bolday, tog'day, misli ipak* kabi an'anaviy o'xshatishlardan keng ko'lamda foydalanilgan.

9. Oshiq Erkin ijodida maqol va iboralar vazn yoki uslub talabi bilan ijodiy tarzda qo'llangan hamda leksik yoki grammatik jihatdan o'zgartirilib, she'rda o'ynoqilik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlarni ta'minlagan. Maqol va iboralar ta'sirida shoir tomonidan yaratilgan aforizmlar, hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. Bunday barqaror birliklar she'rlarning ta'sirchanligi, ohangdorligi hamda badiiy va estetik salmog'ining oshishini ta'minlagan.

10. Oshiq Erkin asarlari tilining lingvokulturologik tahlili o'zbek tilshunosligida badiiy matn jozibadorligini lisoniy-madaniy omillar uyg'unligida o'rganish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Lingvokulturologik birliklar qatorida Xorazm hududiga xos dialektal birliklar ham alohida ahamiyatga ega. *Gizlänib* [gizlanib], *bičibsan* [bichibsan], *qar ätmaq* [qor atmoq], *čaşadı* [choshodi], *äläştirmän* [alashtirmang], *dinžaqmisan* [dinjoqmisan], *jaşüllü* [yoshulli], *čiqan* [chiqon], *kejvāni* [keyvani], *hāzlik* [hazlik], *koz ajdin* [ko'z oydin], *čogirmä* [cho'girma], *täqiyis* [taqiyosi], *žündik* [jundik], *gommä* [go'mma], *ižžan* [ijjon], *žoxarixordä* [jo'xorixo'rda] va *bal* [bol] kabi dialektizmlarning she'riy misralarida ifodalanişi yozuvchining individual uslubi, so'zning estetik

vazifasi hamda shevaga xos birliklarning adabiy matnda ifodalanish xususiyatlarini aniqlashda alohida amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

11. Oshiq Erkin asarlaridagi onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar va bibliionimlar asar qahramonlari tabiatini hamda ma'lum bir tarixiy davrning madaniy-ma'rifiy manzarasini tasvirlashda qimmatli lingvokulturologik omil hisoblanadi. Muallif murojaat qilgan pretsedent nomlar o'quvchining madaniy xotirasini faollashtirish va xalqimizning o'tmish tarixini ham matn ichida o'ziga xos kodlashtirishga, asarning badiiy-estetik qiymatini oshirga xizmat qilgan.

12. Tadqiqotdagi adib ijodiga lingvopoetik hamda lingvokulturologik yondashuv asosidagi tahlillar kelgusida Xorazm vohasi adabiy muhiti ijodkorlari, shuningdek, o'zbek adabiyotining boshqa yirik vakillari asarlarini antroposentrik yo'nalishda o'rganuvchi yangi ilmiy izlanishlar yaralishida ishonchli manba va o'ziga xos ilmiy andoza vazifasini o'taydi. Qolaversa, ijodkorning yuksak badiiy mahorati va milliy qadriyatlar uyg'unligini o'zida to'laqonli aks ettirgan ushbu tadqiqot o'zbekona dunyoqarashni lisoniy birliklar orqali kelajak avlodga yetkazishda muhim ilmiy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

СУЛТАНОВА ДИЛДОРА АЗАМАТ КИЗИ

**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ОШИК ЭРКИНА**

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ургенч – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.2.PhD/Fil14788.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (fil-ik.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» www.ziyo.net/uz.

Научный руководитель:

Примов Азамат Искандарович
доктор филологический наук, профессор

Официальные оппоненты:

Курбониязов Гулмирза Алламбергенович
доктор филологический наук, профессор
Йулдашев Маъруфжон Мухаммаджонович
доктор филологический наук, профессор

Ведущая организация:

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Защита диссертации состоится «02» апрель 2026 г. в 09 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 по присуждению ученой степени при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом №14). Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за №2-105) (Адрес: 220100, Ургенч, ул. Хамида Алимджана, дом №14. Тел: (99862) 224-67-00).

Автореферат диссертации разослан «13» 03 2026 года.
(Протокол реестра рассылки № 83 от «13» 03 2026 года.)



Д.К. Гайипов
председатель научного совета по присуждению ученой степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

С.С. Атажанов
Учёный секретарь научного совета по присуждению ученой степени, доктор фил.н. по филологии (PhD)

Д.Т. Юлдашев
Врио заместителя председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы все большую актуальность в мировой лингвистике приобретает изучение лингвопоэтических и лингвокультурологических аспектов языковых единиц. Действительно, в мировой лингвистике с конца XX века исследование языка на основе антропоцентрического подхода выравнилось, и в настоящее время лингвокультурология, изучающая языковые единицы во взаимосвязи с культурой нации, стала перспективным направлением. В последние годы усилилось внимание к изучению языка наряду с его носителем, его национальным менталитетом и культурой. Поэтический подход к языку произведений конкретного писателя служит глубине и обоснованности исследований, освещающих выразительность языка.

В мировой лингвистике исследования по лингвопоэтике и лингвокультурологии, возникшие в результате развития антропоцентрической лингвистики, проводятся на основе современных методов анализа. Глубоко изучаются их общие аспекты с областями культурологии и литературоведения. В частности, в лингвопоэтике единицы на фонетическом, лексическом и грамматическом уровнях рассматриваются как основное средство формирования языка художественной литературы и индивидуального стиля творца, и анализируются их наиболее образцовые и характерные аспекты. Однако в лингвопоэтике актуальным вопросом остается реализация средств художественного изображения в художественном тексте, а в лингвокультурологии – всестороннее исследование роли и специфики лингвокультурных единиц, отраженных в художественных произведениях, в повышении содержания и художественности произведения.

В узбекском языкознании специально изучаются такие вопросы, как лингвопоэтические особенности художественного текста, мастерство использования языка конкретным творцом. Узбекская литература обладает богатым наследием, и лингвистическое исследование образцов этого наследия является одной из задач области современного языкознания. Как отметил наш Президент: «Именно родной язык был для наших предков главным фактором национальной самоидентификации. На этом языке они создавали величайшие образцы культуры, научные открытия, художественные шедевры»¹⁹. Следующие рассуждения главы нашего государства о сохранении, изучении и исследовании этого наследия определяют необходимость всестороннего изучения нашего языка: «Вместе с тем следует глубоко изучать особенности узбекского языка и его диалектов, вопросы, связанные с его историей и перспективами развития, повысить эффективность профильных научных исследований, кардинально улучшить качество подготовки кадров»²⁰. Следует отметить, что «название области, изучающей язык художественного

¹⁹ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном 30-летию придания узбекскому языку статуса государственного языка. <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoyevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottiz-jilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>.

²⁰ Там же.

текста как проявление эстетической функции языка, как «лингвопоэтика» стало довольно устойчивым, и было проведено много исследований»²¹. С момента обретения независимости на страницах республиканской печати был опубликован ряд статей о жизни и творчестве заслуженного деятеля культуры Узбекистана Ошик Эркина, большинство которых посвящены литературоведению, то есть поэзии поэта и их можно оценить, как признания Озода Шарафиддинова, Мухаммада Юсуфа, Эркина Самандара, Омона Матжона и других писателей. Однако научные исследования, глубоко анализирующие творчество поэта с художественной и лингвистической точки зрения, немногочисленны. За прошедшие годы Ошик Эркин опубликовал около сорока художественных и публицистических книг, а также более ста популярных статей, тезисов и фельетонов. Ни для кого не секрет, что творчество поэта хорошо известно любителям поэзии и заняло прочное место в сердцах читателей. Ошик Эркин – уникальный поэт. Язык его произведений отличается от произведений других поэтов тем, что он написан в народных тонах и подходит для пения. Глубокое изучение и исследование художественных языковых средств, отражающих мастерство писателя в использовании слов, определяет актуальность работы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для развития узбекского языкознания и реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, в №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, в №УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, а также в утвержденной данным указом Концепции развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020 – 2030 годах, в №ПП-308 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию государственного языка» от 20 октября 2025 года и других нормативно-правовых актах в этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Исследование выполнено в рамках приоритетного I направления развития науки и технологий «Формирование информированного общества и системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития демократического государства и путей их реализации».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике проведены определенные исследования по особенностям лингвопоэтических и лингвокультурологических единиц художественного текста. Многие ученые проводили исследования в области лингвопоэтики и высказывали свои взгляды. В частности, Б.В.Томашевский, Л.В.Щерба, Д.Н.Шмелев,

²¹Йўлдашев М. Бадий матн лингвопоетикаси. – Т: Фан, 2008. – Б.18.

В.В.Виноградов, Г.В.Степанов, В.Ю.Задорнова, О.С.Ахманова,
А.А.Липгарт²² и др.

В результате исследования степени использования языковых элементов творцами в прозе и поэзии определение своеобразного стиля творца в узбекском языкознании поднялось на уровень главной темы. Доказательством этого является лингвистическое исследование в последние годы творчества некоторых узбекских писателей такими исследователями, как Р.Нормуродов, М.Йулдошев, Й.Саидов, Ф.Бобожонов, Д.Шодиева, Г.Мухаммаджонова, С.Боймирзаева, С.Каримов, М.Ёкуббекова, З.Чориева, Л.Джалолова, М.Косимова, Ж.Матназаров, Д.Аллаберганова, А.Аллаберганова и Ф.Отажанова²³. Часть исследований посвящена изучению языка прозаических произведений, а также усиливается внимание к изучению лингвопоэтики поэтических произведений.

Г.Мухаммаджоновой лингвопоэтически исследовано творчество таких поэтов, как Шавкат Рахмон, Усмон Азим, Аъзам Уктам, Икбол Мирзо, Мухаммад Юсуф, Омон Матжон, Матназар Абдулхаким, Эркин Самандар, вошедших в нашу литературу в конце 80-х – начале 90-х годов прошлого века. В данной работе особое внимание уделяется не отдельному творцу, а отдельному периоду, то есть периоду накануне независимости, совершившего великий поворот в нашей истории, и периоду, охватывающему ее первые годы, когда с появлением в нашей литературе писателей, у которых начали формироваться новые общественно-

